



TIL VA ADABIYOT


TA'LIMI

КУТУБХОНАСИ



XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

MUTAFAKKIRLAR



MAHMUD  
ZAMAXSHARIY

# “MUTAFAKKIRLAR”

Bolalar uchun risolalar turkumi

**OLIM JO‘RAYEV,  
ABDUHALIM MUHIDDINOV**

## **MAHMUD ZAMAXSHARIY**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 616-sonli tavsiyasi bilan  
chop etildi*

**«TAFAKKUR» NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2014**

72.3(50‘)  
J96

**Jo‘rayev, Olim.**

Mahmud Zamaxshariy/O.Jo‘rayev, A. Muhiddinov; tahrir hay‘ati: U. Inoyatov va boshq. T.: «Tafakkur», 2015. - 32 b. - («Mutafakkirlar» bolalar uchun risolalar turkumi).

I. Muhiddinov, Abdulhalim.

BBK 72.3(50‘)

**Tahrir hay‘ati:**

U. INOYATOV, A. XOLBEKOV, Y. ASADOV, I. ZOKIROV,  
F.AXMEDOV, B. DONIYOROV, B. JOVLIYEV, A. MUXTOROV.

*Bu risolada buyuk vatandoshimiz, qomusiy olim, tafsirshunos, hadisshunos, tilshunos, lug‘atshunos, adib va arablar orasida Jorulloh taxallusi bilan mashhur bo‘lgan olim Mahmud Zamaxshariy haqida ma‘lumotlar to‘plangan.*

ISBN 978-9943-372-30-6

© «TAFAKKUR» nashriyoti, 2011.

© «TAFAKKUR» nashriyoti, 2015.

...Barchamiz yaxshi tushunamizki, erishilgan bilimlarni, o'tmishda, jumladan, o'rta asrlar Sharqida amalga oshirilgan olamshumul kashfiyotlarni chuqur o'zlashtirmasdan turib na ilm-fanda, na boshqa sohalarda yangi, yanada yuksak marralarni zabt etib bo'lmaydi. Biz kelgusi faoliyatimizda ham ayni shu tamoyilga qat'iy amal qilamiz...

...Men yoshlarimizga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: "Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak", deb aytaman. Ayni vaqtda "Faqat g'ururlanishning o'zi yetarli emas, kelinglar, o'zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o'z hissamizni qo'shaylik!" deb takrorlayman.

### **Islom KARIMOV**

*"O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.*

## **MAHMUD ZAMAXSHARIY (1075–1144)**

### **Ismi-sharifi**

Uning to‘liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad bo‘lib, Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilganligi uchun Zamaxshariy taxallusini olgan. Shuningdek, Zamaxshariy ko‘p asarlarini Makkada yozganligi sababli Jorulloh (Allohning qo‘shnisi) degan sharafli nomga ham muyassar bo‘lgan.

### **U zot kim edi?**

Mahmud Zamaxshariy O‘rta Osiyolik qomusiy olim, tafsirshunos, hadisshunos, tilshunos, lug‘atshunos, adib bo‘lgan. Mahmud Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asar yozgan.

### **Qachon va qayerda tug‘ilgan?**

Mahmud Zamaxshariy hijriy 467-yili, rajab oyining yigirma yettinchi sanasida chorshanba kuni (milodiy hisobda 1075-yilning 19-martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri – Zamaxsharda tavallud topgan.

### **Qanday oilada voyaga yetgan?**

Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat bo‘lmasa-da, o‘z davrining savodli, taqvodor, diyonatli kishisi bo‘lgan. U ko‘p vaqtini Qur‘oni karim tilovati va toat-ibodat bilan o‘tkazgan. Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan bo‘lib, xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g‘oyat mehr-muruvvatli kishi sifatida el orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Uning onasi ham taqvodor, fozila va ma‘rifatli ayollardan hisoblangan.

### **Ustozlari**

Zamaxshariyning dastlabki ustozlari Xorazmdan bo‘lishgan. Uning kamolot bosqichiga ko‘tarilishiga til, lug‘at va adabiyot sohasida dong taratgan olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr ad-

Dabbiy al-Isfahoniy katta hissa qoʻshgan. 1113 (508-hijriy)-yilda Marvda vafot etgan bu olim Xorazmda ham bir necha yil yashagan.

Shunday katta olimning chuqur bilimi, ilm olish borasida Zamaxshariyga koʻrsatgan jiddu jahdi uning kelajakda grammatika va lugʻat sohalarida yetuk olim boʻlib yetishishiga mustahkam zamin yaratdi.

Zamaxshariyning ilmiy, ijodiy faoliyatida bir millatni boshqa millatdan ustun qoʻyish boʻlmasa ham, biroq u arab tiliga, arab xalqining ilm-fandagi yutuqlariga yuqori baho beradi, dastlab shu diyorda bunyod boʻlgan islom dini maʼrifat va madaniyat rivojiga ijobiy taʼsir koʻrsatganini alohida qayd etadi. U grammatikaga bagʻishlangan “Al-Mufassal” asarini odamlarning istagini hisobga olib, “arab kalimalarini bilish uchun” yaratgani, “Muqaddimat ul-adab” asarini esa boshqa xalqlar arab tilini oʻrganmogʻi uchun yozganini taʼkidlaydi.

Zamaxshariyning ustozlaridan yana biri Abu Bakr Abdulloh ibn Talha ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabariy al-Andalusiy boʻlib, u ham grammatika va fiqh sohasida yirik olim hisoblanardi. Zamaxshariy Makkada boʻlganida baʼzi grammatik asarlarni, jumladan, “Sharh risolat ibn Abu Zayd” kabilarni uning yordamida oʻrgangan edi. Al-Yabariy 1124 (518-hijriy)-yilda vafot etgan.

Zamaxshariy Bagʻdodda boʻlganida ham koʻpgina olimlar bilan muloqotda boʻlib, ulardan turli ilmlardan saboq olgan edi. Jumladan, hadis ilmini Abu al-Xattob ibn al-Batar, Abu Saad ash-Shaffoniy, shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, fiqh ilmini shayx al-Xayyatiy, ad-Damgʻoniy, Shariy ibn ash-Shajariydan oʻrgangan edi.

Zamaxshariyning ustozlaridan yana biri Abu Ali al-Hasan ibn al-Muzaffar an-Naysaburiydir. Yoqut al-Hamaviy u haqda shunday yozgan: “Al-Hasan ibn al-Muzaffar an-Naysaburiy olijanob adib va shoir, bir qancha asarlarning muallifi boʻlib, u haqda Abu Ahmad Mahmud ibn Arslon oʻzining “Xorazm tarixi” asarida: “Abu Ali al-Hasan ibn al-Muzaffar al-Adib ad-Dariy an-Naysaburiy, soʻngra al-Xorazmiy 442-yil, ramazon oyining 14-kunida vafot qilgan. U Abu Mudar (Zamaxshariyning Xorazmdagi birinchi ustoz)dan oldin Abul-Qosim Zamaxshariyga ustozlik qilgan, uning nazmiy va nasriy asarlari ham bordir”, deb koʻrsatgan. Zamaxshariy, avval zikr qilganimizdek, al-Hasan ibn al-Muzaffar vafotidan 25 yil keyin, yaʼni hijriy 467-yilda tugʻilgan.

## Shogirdlari

Uning shogirdlardan biri Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Ali ibn Ahmad ibn Harun al-Umroniy al-Xavarizmiy bo‘lib, u “Hujjat ul-afodil” va “Faxru-l-mashoyix” laqablari bilan atalar, Zamaxshariyning eng yaqin do‘stlaridan bo‘lib qolgandi. U ustoz panohida adabiyot, hadis ilmlaridan tahsil ko‘rgandi. Zamaxshariy zamonasining yetuk olimi darajasiga ko‘tarilib, o‘zi ham ilm toliblariga dars berib, tafsir, grammatika, jo‘g‘rofiya sohalari bo‘yicha asarlar yaratgandi. U 1144(566-hijriy)-yilda vafot etgan.

Zamaxshariyning qobiliyatli shogirdlaridan yana biri Muhammad ibn Abul Qosim ibn Boychuk al-Baqqoliy al-Xorazmiy al-Odamiy an-Nahviy bo‘lib, u “Zayn al-mashoyix” laqabi bilan mashhur edi. Yoqut al-Hamaviy u haqida: “Al-Adabda u imom, lison ul-arabda hujjat (ishonchli olim), lug‘at va al-i‘robni Zamaxshariydan o‘rganib, keyinchalik uning o‘rniga o‘tirgan edi. Hadis ilmuni ustoz Zamaxshariy va boshqalardan o‘rgandi. U e‘tiqodi kuchli, olijanob, sof vijdonli kishi edi. Uning bir qancha asarlari bo‘lib, ulardan “Miftoh at-Tanziyl”, “Taqqiyim al-lison fin-nahv”, “Al-I‘tib fil-i‘rob”, “Al-Bidoya fil-maoniy va-l-bayon”, “Kitob manozil al-arab” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin”, deb yozadi.

Abu Yusuf Yoqub ibn Ali ibn Muhammad ibn Ja‘far al-Balxiy al-Jandaliy esa Zamaxshariy bilan doim birga bo‘lar, undan sira ajralmasdi. U, ayniqsa, al-adab ilmi bo‘yicha o‘z ustozidan ko‘p saboq olib, bu sohada yetuk olim bo‘lib yetishdi. Al-Muvaffaq ibn Ahmad ibn Abu Sa‘iyd Is‘hoq Abul-Muayyad ham Zamaxshariyning munosib shogirdlaridan bo‘lib, “Axtabu Xvaraz” (Xorazmning eng chechan xatibi, so‘z ustasi) laqabi bilan mashhur edi. U ko‘p ilmlar sohasida yetuk olim, faqih va shoir bo‘lish bilan birga o‘ta fozil kishi, arab tilining bilimdoni sifatida g‘oyatda mashhur edi. U hijriy 484-yilda tug‘ilib, 568-hijriy yilda vafot etgan.

Zamaxshariyning boshqa shogirdlaridan tabaristonlik Abul-Mahosin Ismoil ibn Abdulloh at-Ta‘viyliy, abivardlik Abul Mahosin Abdurrahmon ibn Abdullo al-Bazzor, zamaxsharlik Abu Amru Omir ibn al-Hasan as-Simsor, samarqandlik Abu Said Ahmad ibn Mahmud ash-Shotiy, xorazmlik mashhur faqih Abu Tohir Somon ibn Abdulmalik va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Zamaxshariyga shogird tushganlardan biri Ali ibn Iso ibn Hamza ibn Vahhos Abu at-Tayyib edi. Bu fozil, olijanob inson Makka ahlidan bo‘lib, nazm va nasrda bir qancha asarlar yozgan. Zamaxshariy Makkadaligida unga saboq bergan edi. O‘z navbatida, tarixchi Ibn al-Qiftiy qayd qilganidek, Zamaxshariy ham Ibn Vahhosning ilmidan iste‘foda etgan. U 550-hijriy sanada va-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/uz/asar/1133> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/1133> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию  
можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/1133>